

M.B. Shodmonova

**ONA TILI VA ADABIYOT
O'QITUVCHILARINING KASBIY
TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH
TEXNOLOGIYALARI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

Shodmonova Munira Burxonovna

**ONA TILI VA ADABIYOT O'QITUVCHILARINING
KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH
TEKNOLOGIYALARI**

Monografiya

**“Nodirabegim” nashriyoti
Toshkent – 2021**

KBK: 74.268.0

Sh 74

UO'K: 37.02:811.512.133

ISBN 978-9943-7314-3-1

Shodmonova Munira Burxonovna

Ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalari [Matn] : monografiya / M.B. Shodmonova. - Toshkent: Nodirabegim, 2021. - 136 b.

Ushbu monografiya ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalari, shuningdek, o'qituvchilarning malakasini oshirish jarayonida ona tili va adabiyot fanlarini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, o'qitish samaradorligini oshirishning ilmiy-pedagogik asoslari hamda ona tili mazmuni va adabiyot namunalari o'rganishning nazariy va amaliy tadqiqatiga bag'ishlangan.

Monografiya metodist olimlar, oliy o'quv yurtining bakalavriat va magistratura bosqichi talabalari, tadqiqotchilar hamda ona tili va adabiyot o'qituvchilariga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

N.A. Muhamedova – filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

G.A. Asilova – pedagogika fanlari doktori, professor
N.E. Yo'ldosheva – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Monografiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashi qarori bilan nashrga tavsifiya etilgan (2021-yil 20-apreldagi 6-sonli bayonnomasi).

© **M.B. Shodmonova**,
© **“Nodirabegim” nashriyoti, 2021.**

KIRISH

Jahon ta'limida barcha fanlar qatori ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirishga e'tibor qaratilmoqda. 1998-yil YUNESKO tomonidan Gamburgda o'tkazilgan Butunjahon konferensiyasida kattalar ta'limi XXI asrda «eshiklarni ochuvchi kalib» deb e'tirof etildi. Buyuk Britaniyada pedagog xodimlar malakasini oshirish maxsus o'quv dasturlariga tayanib trening shaklida, Germaniyada sirtqi, masofadan o'qitish tarzida, Litva va Latviyada amaliy seminar, kongresslar, masofadan o'qitishni ham o'z ichiga olgan maxsus trening kurslar tashkil etilgan.

Jahonda malaka oshirishning psixologik-andragogik omillarini rivojlantirish, o'qituvchilarda yangi bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyani shakllantirishga doir ilmiy nazariy ishlar olib borilmoqda. Ona tili va adabiyot o'qituvchilari malakasini oshirishda mutqiy kompetentlik va ijodkorlikka ustuvorlik berish orqali o'qituvchilar kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga zaruriyat mavjud. Mazkur zaruratdan kelib chiqib, ona tili va adabiyot o'qituvchilarining malakasini oshirish mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablar hamda o'quv mazmuni buyurtmachilar ehtiyoji asosida takomillashtirilmoqda.

Respublikamizda kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirishning huquqiy-me'yoriy asoslari, moddiy-texnika bazasi, yangi ta'lim talablari xorijiy tajribalar asosida yaratildi. O'n bir yillik o'rta ta'limning joriy etilishi o'qituvchilar malakasini oshirish tizimida ishlarni yangicha tashkil etishni talab qilmoqda. «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi»da «uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, ...yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ...umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish¹» yo'nalishi ustuvor vazifa etib belgilangan. Natijada ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qiladigan texnologiyalarni

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Харакалар стратегияси тўғрисида»ги 110-4947-Фармони. – Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.